



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 6 (8)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**6**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Karabayev R.Z.</b> Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....                                                                    | 8   |
| <b>Ubaydullayeva N.A.</b> Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....                                    | 11  |
| <b>Xatamov A.A.</b> Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....                           | 15  |
| <b>Yokubjonova X.Yo.</b> Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....                                 | 19  |
| <b>Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S.</b> Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....                              | 24  |
| <b>Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B.</b> Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....                                  | 27  |
| <b>Xojiboyev M.Sh.</b> Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari..... | 31  |
| <b>Исраилова Д.К.</b> Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....                                                                     | 38  |
| <b>Qurbonova X.I.</b> Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....                                                  | 43  |
| <b>Asqarov A.H.</b> Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalarini misolida).....                              | 47  |
| <b>Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A.</b> Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....                                                                       | 51  |
| <b>Barnayev Z.Sh.</b> Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....                                                        | 55  |
| <b>Bobokulov A.A.</b> Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....                                                      | 59  |
| <b>Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б.</b> Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....                                                               | 63  |
| <b>Matmusayev M.O.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....                                                 | 67  |
| <b>Raxmatjonova G.E.</b> Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....                  | 72  |
| <b>Kamoldinova N.A.</b> Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....                                                                        | 76  |
| <b>Xaitova M.K.</b> Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....                                       | 81  |
| <b>Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U.</b> Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....                                                                        | 85  |
| <b>Maribjonov B.I., Arabboyev J.S.</b> Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....   | 88  |
| <b>Ro‘ziyev Sh.Sh.</b> Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....                                                      | 92  |
| <b>Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....                      | 95  |
| <b>Karimov D.M., Mustafayeva H.</b> Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....                                                               | 99  |
| <b>Ermatova S.I.</b> Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....        | 104 |
| <b>Ermatov M.S.</b> Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....                                                               | 107 |
| <b>Azizova H.A.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....                             | 111 |
| <b>Юсупов А.С., Джангабаева Г.П.</b> Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..                                                                               | 114 |
| <b>Xusanova Z.R.</b> Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....                                   | 119 |
| <b>Abdulazizov A.A.</b> Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....                                        | 122 |
| <b>Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X.</b> Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....                                                | 126 |
| <b>Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н.</b> Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....                             | 131 |
| <b>Toxirov J.R.</b> Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.                                                              | 136 |

## **“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil**

|                                                                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sulaymonova F., Ro‘zimov B.</b> Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar..... | 140 |
| <b>Zayavitdinova N.M.</b> Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....                                       | 143 |
| <b>Odilova M.A.</b> Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....                                                                | 147 |
| <b>Axmedova D.N.</b> Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....                                                              | 151 |
| <b>Sapayeva N.K.</b> O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....                  | 155 |
| <b>Allayarov S.</b> Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....                 | 158 |
| <b>Махмудов О.Х.</b> Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....                                                                           | 162 |
| <b>Ibragimova M.M.</b> “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....                      | 167 |
| <b>Olimjonov A.</b> Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....  | 171 |
| <b>Rakhimboeva B.D.</b> Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....                          | 174 |
| <b>Raxmatova F.Y.</b> To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....                                         | 178 |
| <b>Ergasheva A.F.</b> Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....                                    | 181 |
| <b>Navruzova G.U.</b> Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....                  | 184 |
| <b>Djumayeva S.K.</b> Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....           | 188 |
| <b>Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M.</b> Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish..... | 193 |
| <b>Ибодуллоева З.С.</b> Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....                                             | 199 |
| <b>Ibragimova G.S.</b> Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....                                                             | 203 |
| <b>Raxmatova S.S.</b> Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....                                                               | 207 |
| <b>Umarova M.M.</b> Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....                                      | 212 |
| <b>Karimova F.A.</b> Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....                                 | 217 |
| <b>Raxmanov B.I.</b> Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....                                                                    | 221 |
| <b>Ashurova G.N.</b> Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....                                              | 225 |
| <b>Axmadjanov I.I.</b> Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....                           | 228 |
| <b>Эгамназарова Г.Ш.</b> Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....                                      | 232 |
| <b>Mamanazarov M.A.</b> Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....                                  | 236 |
| <b>Химматов А.Х.</b> Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....                                                                         | 241 |
| <b>Kambaraliyeva I.S.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....                             | 244 |
| <b>Muxiddinov T.Sh.</b> Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....                                                                | 248 |
| <b>Sayxdodjayeva N.I.</b> Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....                                         | 253 |
| <b>Fayzullayev J.N.</b> Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....                                                               | 257 |
| <b>Tursunova N.X.</b> «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....                                    | 261 |
| <b>Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R.</b> Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....                                            | 266 |
| <b>Abdurasulova M.O.</b> Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....                                                                                         | 270 |

|                                                                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Vaxidov A.</b> Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....                                                                                   | 273 |
| <b>Turg‘unova T., Muftaydinov Q.</b> Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....                        | 277 |
| <b>Kurbanov F.U.</b> Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....                                                                                              | 283 |
| <b>Umarov T.S.</b> Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....                                   | 287 |
| <b>Rahimova N.A.</b> Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....                         | 291 |
| <b>Yangiboyev U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....                      | 295 |
| <b>Махкамова Н.С.</b> Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....                                                                                    | 299 |
| <b>To‘xtarova F.Y.</b> Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....                                                                                   | 304 |
| <b>Anvarov Sh.D.</b> O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....                                | 308 |
| <b>Xalmirzayev O.A.</b> Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....                                                                      | 313 |
| <b>Zaidov I.I.</b> Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....                                                                     | 318 |
| <b>Rahimova N.A.</b> Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....                                                                                    | 321 |
| <b>Gulimboyev S.I., Rejapov X.X.</b> O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....                                                                 | 324 |
| <b>Bardiyev S.U.</b> Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....                                                            | 328 |
| <b>Qulmatova S.S.</b> Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish..... | 332 |
| <b>Aminov S.S.</b> Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....                                                                              | 336 |
| <b>Дадабоева М.М.</b> Кичик бизнесинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....                                                                                   | 340 |
| <b>Numonjonova N.A.</b> Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish                                                                    | 344 |
| <b>Абдулазизов А.А.</b> Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....                                                                        | 348 |
| <b>Muradov O.U.</b> Sanoat korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....                                     | 352 |
| <b>Saidova M.J.</b> Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....                         | 356 |
| <b>Umirova G.Sh.</b> Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarda rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....  | 360 |
| <b>Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh.</b> Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....           | 365 |
| <b>Nosirov S.N.</b> Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....                                                              | 369 |
| <b>Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E.</b> Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....              | 373 |
| <b>Mirzataev S.M.</b> Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....                                         | 376 |
| <b>Kidirniyazov A.Sh.</b> Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....                                             | 379 |
| <b>Абдуллаева Ш.Э.</b> Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....                                                                                         | 382 |
| <b>Mirjalolova M.M.</b> Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....                            | 389 |
| <b>Baytanov O‘.M.</b> Sanoat korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....                                                                                | 394 |
| <b>Умаров А.Т.</b> Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....                                                                                                         | 400 |

**ERKIN IQTISODIY ZONALAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING HUDUDIIY  
IQTISODIY INTEGRATSIYAGA TA’SIRI**

**IMPACT OF FREE ECONOMIC ZONES AND SMALL INDUSTRIAL ZONES ON  
REGIONAL ECONOMIC INTEGRATION**

**ВЛИЯНИЕ СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН И МАЛЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ  
ЗОН НА РЕГИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ИНТЕГРАЦИЮ**

**Bobokulov Abbos Alisher o‘g‘li**

Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Buxoro innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

**Annotatsiya**

Maqolada erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat zonalarining (KSZ) hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri Xitoy Xalq Respublikasi, Birlashgan Arab Amirliklari, Polsha Respublikasi, Janubiy Koreya Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi tajribalari asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari mazkur zonalarining xorijiy investitsiyalarni jalb etish, eksport salohiyatini oshirish va mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishdagi rolini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, hududiy iqtisodiy integratsiya, mintaqaviy rivojlanish.

В статье на основе сравнительного анализа опыта Китайской Народной Республики, Объединённых Арабских Эмиратов, Республики Польша, Республики Корея и Республики Казахстан исследовано влияние свободных экономических зон (СЭЗ) и малых промышленных зон (МПЗ) на территориальную экономическую интеграцию. Результаты исследования демонстрируют роль данных зон в привлечении иностранных инвестиций, наращивании экспортного потенциала и сокращении межрегиональных социально-экономических различий.

**Ключевые слова:** свободная экономическая зона, малая промышленная зона, территориальная экономическая интеграция.

The article presents a comparative analysis of the impact of free economic zones (FEZ) and small industrial zones (SIZ) on regional economic integration based on the experiences of the People’s Republic of China, the United Arab Emirates, the Republic of Poland, the Republic of Korea, and the Republic of Kazakhstan. The research findings demonstrate the role of these zones in attracting foreign investment, increasing export potential, and reducing inter-regional socio-economic disparities.

**Key words:** free economic zone, small industrial zone, regional economic integration, regional development.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va kichik sanoat zonalar (KSZ) davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda eksport salohiyatini oshirishning samarali institutsional vositalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra dunyo bo‘ylab 145 mamlakatda 5400 dan ortiq turli ko‘rinishdagi maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu zonalar global savdo aylanmasining 20% dan ortig‘ini ta’minlaydi va taxminan 100 million ish o‘rni yaratgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni, shuningdek 2020-yil 17-fevraldagi O‘RQ-604-sonli

"Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni asosida mamlakatda EIZ va KSZ tarmog'ini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 532 ta kichik sanoat zonasi va 210 ta yoshlar sanoat-tadbirkorlik zonasi, jami 766 ta sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. 2023-yilda ushbu zonalarda 4 milliard AQSh dollaridan ortiq mahsulot ishlab chiqarilib, 972 million dollarlik eksport amalga oshirildi.

Erkin iqtisodiy zonalar nazariyasi va amaliyoti masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. D. Madani [1] o'z tadqiqotlarida eksportga yo'naltirilgan zonalarining rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'rnini asoslagan bo'lsa, T. Farole [2] erkin zonalarining Afrika davlatlari tajribasidagi samaradorligini tahlil qilgan. D.Z. Zeng [3] Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalarini va sanoat klasterlari modelini chuqur o'rgangan. UNCTAD [4] hisobotlarida iqtisodiy zonalarining global investitsiya oqimlaridagi o'rni keng yoritilgan. Mahalliy iqtisodchilar orasida A.V. Vahobov, N.M. Sirojiddinov, B.B. Berkinov, Sh.Sh. Shodmonov kabilar O'zbekistondagi EIZ va KSZ faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib chiqqan. Biroq besh xorijiy mamlakat tajribasini Buxoro viloyati konteksti bilan bog'lagan holda qiyosiy tahlil qiluvchi tadqiqotlar yetarli darajada keng yoritilmagan. Bu holat mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, klaster yondashuvi, SWOT-tahlil va holatlar tahlili (case study) usullaridan foydalanildi. Tahlil uchun ma'lumotlar Jahon banki (World Bank), UNCTAD, OECD, fDi Intelligence va tegishli mamlakatlarning rasmiy statistika qo'mitalari hisobotlaridan, shuningdek ilmiy nashrlardan olindi.

1. Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi. Xitoy 1980-yilda Shenchjen, Chjuxay, Shantou va Syamen shaharlarida ilk maxsus iqtisodiy zonalarini tashkil etish bilan iqtisodiy islohotlarni boshlagan. Hozirda mamlakatda 7 ta yirik maxsus iqtisodiy zona, 19 ta erkin savdo zonasi va 400 dan ortiq sanoat parki faoliyat yuritmoqda. Shenchjen shahri 1980-yildagi 270 million yuanlik YaIMdan 2023-yilga kelib 3,46 trillion yuanlik (taxminan 487 milliard AQSh dollari) YaIMga yetib, mamlakatning innovatsion markaziga aylangan. Xitoyning maxsus iqtisodiy zonalarini mamlakat YaIMining 22–25% ini, eksportining 60% ini va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 45% ini ta'minlaydi hamda 30 millionga yaqin ish o'rni yaratgan [3, 5]. Hududiy integratsiya nuqtai nazaridan, Pearl River Delta zonasi (Guandun viloyati) butun janubiy Xitoy iqtisodiyotini birlashtirgan kuchli mintaqaviy iqtisodiy markazga aylangan.

2. Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi. BAA 1985-yilda Dubay shahrida Jebel Ali Erkin Zonasi (JAFZA)ni tashkil etish bilan erkin zonalar tarmog'ini rivojlantirishni boshlagan. Hozirda mamlakatda 45 dan ortiq erkin zona faoliyat yuritmoqda, jumladan Dubai Multi Commodities Centre (DMCC), Dubai International Financial Centre (DIFC), Abu Dhabi Global Market (ADGM). JAFZAda 10 700 dan ortiq xalqaro kompaniya faoliyat ko'rsatib, 160 000 dan ortiq ish o'rni saqlanib turibdi. DIFC esa Dubay YaIMining 12% ini ta'minlaydi. UNCTADning Jahon investitsiya hisobotiga ko'ra, 2023-yilda BAA to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha jahonda ikkinchi o'rinni egallab, 30,7 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb etgan [6, 7]. JAFZA hozirgi kunda Yaqin Sharq, Janubiy Osiyo va Afrikani bog'lovchi muhim logistika markaziga aylangan.

3. Polsha Respublikasi tajribasi. Polsha 1994-yilda maxsus iqtisodiy zonalar (Specjalne Strefy Ekonomiczne – SSE) tashkil etishni boshlagan. Birinchi zona 1995-yilda Melez shahrida tashkil etilgan. Hozirda mamlakatda 14 ta maxsus iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, Polshaning maxsus iqtisodiy zonalarida 112 milliard zloti (26 milliard yevro) miqdorida investitsiyalar amalga oshirilgan va 312 000 dan ortiq ish o'rni yaratilgan [8, 9]. Eng muhimi, bu zonalar Polshaning sharqiy (Lyublin, Pidkarpat) va g'arbiy hududlari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishda muhim rol o'ynagan. Yevropa Ittifoqi tarkibiga qo'shilgandan keyin Polsha zonalarini EI ichki bozori bilan to'liq integratsiyalashgan.

4. Janubiy Koreya Respublikasi tajribasi. Janubiy Koreya 2003-yilda Inchxon Erkin Iqtisodiy Zonasi (IFEZ)ni tashkil etish bilan zamonaviy erkin zona modelini joriy etgan. Hozirda mamlakatda 9 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda: Inchxon, Pusan-Jinhae, Gvanyan-Bey, Sevan, Yeosu va boshqalar. IFEZ texnologiya va innovatsiyalarga yo'naltirilgan yangi avlod zonasi modelini

namoyish etadi: zonada Boeing, GE Healthcare, Samsung kabi xalqaro kompaniyalarning ilmiy-tadqiqot markazlari joylashgan. IFEZ Seul-Inchxon megapolisining iqtisodiy integratsiyasini mustahkamlash hamda Janubiy Koreyaning Shimoliy-Sharqiy Osiyo logistika markazi sifatidagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

5. Qozog‘iston Respublikasi tajribasi. Qozog‘iston 1996-yildan boshlab maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantira boshlagan. 2026-yil holatiga ko‘ra, mamlakatda 17 ta maxsus iqtisodiy zona va 67 ta sanoat zonasi faoliyat yuritmoqda. EIZlarda 1144 ta ishtirokchi ro‘yxatdan o‘tgan, ulardan 558 tasi allaqachon faol ishlamoqda. Zonalar tashkil etilgandan beri 13,9 trillion tengge (taxminan 28 milliard AQSh dollari) qiymatida mahsulot ishlab chiqarilgan [10, 11]. "Xorgos – Sharqiy darvozalar" EIZ Xitoy bilan chegarada joylashgan bo‘lib, "Yangi Ipak yo‘li" iqtisodiy kamarining muhim halqasini tashkil etadi. 2030-yilgacha 1 milliard dollar, 2035-yilgacha 1,3 milliard dollar investitsiya jalb etish ko‘zda tutilgan. Bu zona transchegaraviy iqtisodiy integratsiyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

**1-jadval**

**Besh mamlakat erkin iqtisodiy zonalarining qiyosiy tahlili**

| <b>Ko‘rsatkich</b>     | <b>Xitoy</b>             | <b>BAA</b>             | <b>Polsha</b>         | <b>J.Koreya</b>     | <b>Qozog‘iston</b> |
|------------------------|--------------------------|------------------------|-----------------------|---------------------|--------------------|
| <b>Boshlangan yili</b> | 1980                     | 1985                   | 1994                  | 2003                | 1996               |
| <b>EIZ soni</b>        | 7 + 400 park             | 45+                    | 14                    | 9                   | 17 + 67 IZ         |
| <b>YaIMga hissa</b>    | 22–25%                   | DIFC: 12%              | ≈ 3%                  | ≈ 4%                | ≈ 5%               |
| <b>Ish o‘rinlari</b>   | 30 mln+                  | 160K (JAFZA)           | 312 000               | ≈ 100 000           | ≈ 50 000           |
| <b>Investitsiyalar</b> | FDI 45%                  | 30,7 mlrd \$           | 26 mlrd €             | ≈ 18 mlrd \$        | 28 mlrd \$         |
| <b>Asosiy model</b>    | Eksportga yo‘naltirilgan | Xizmatlar va logistika | Hududiy konvergensiya | Innovatsion klaster | Transchegaraviy    |

Manba: UNCTAD World Investment Report 2024, fDi Intelligence, mamlakatlarning rasmiy statistika qo‘mitalari ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, EIZ va KSZning muvaffaqiyati bir necha asosiy omilga bog‘liq: geografik joylashuv va logistik infratuzilma (BAA, Qozog‘iston tajribasi); davlat siyosatining barqarorligi va imtiyozlar tizimining mukammalligi (Xitoy tajribasi); inson kapitali va innovatsion potensial (Janubiy Koreya tajribasi); yirik mintaqaviy bozor bilan integratsiya (Polsha tajribasi); shuningdek, sektorial ixtisoslashuv va klaster yondashuvi (BAA, Xitoy tajribasi).

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, EIZ va KSZ hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Birinchidan, EIZ va KSZning samaradorligi davlat imtiyozlari tizimining mukammalligi, infratuzilma rivojlanganligi hamda boshqaruv sodda va shaffof bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq. Ikkinchidan, ushbu zonalar nafaqat investitsiyalar va eksport o‘shiga, balki mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga ham xizmat qiladi (Polsha tajribasi buni isbotlaydi). Uchinchidan, zamonaviy zonalar oddiy ishlab chiqarish maydonlaridan innovatsion klasterlarga aylanmoqda (Janubiy Koreya tajribasi). To‘rtinchidan, transchegaraviy zonalar geoiqtisodiy integratsiyaning muhim vositasiga aylanmoqda (Qozog‘iston-Xitoy tajribasi).

Buxoro viloyati uchun amaliy takliflar: 1. Amaldagi "Buxoro-agro" EIZ doirasida agrosanoat klasterlarini hosil qilish va mahsulotlarni qo‘shilgan qiymat zanjiri orqali xorijga chiqarish (Xitoy klaster modelidan kelib chiqib); 2. UNESCO merosini hisobga olgan holda, viloyatda turizm va

xizmatlar sohasiga ixtisoslashgan erkin turizm zonasini joriy etish (BAA-DIFC tajribasiga muvofiq); 3. Buxoroning Turkmaniston bilan chegaradoshligini hisobga olgan holda transchegaraviy savdo zonasini barpo etish (Qozog‘iston "Xorgos" tajribasiga o‘xshash model); 4. Viloyatda 3–4 ta zamonaviy kichik sanoat zonasini barpo etib, ularning infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish (Polsha tajribasi); 5. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion va texnoparklar yaratish (Janubiy Koreya "Inchxon" tajribasi); 6. Buxoro viloyatidagi mavjud zonalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha differensial imtiyozlar tizimini joriy etish (Qozog‘iston "investitsiya hajmiga mos imtiyoz" tamoyili).

Mazkur takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish Buxoro viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishga, mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirishga hamda viloyatning xalqaro iqtisodiy aloqalarga to‘liq integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Madani D. A Review of the Role and Impact of Export Processing Zones. – World Bank Policy Research Working Paper No. 2238. – Washington: World Bank, 1999. – 81 p.
2. Farole T. Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. – Washington: World Bank, 2011. – 332 p.
3. Zeng D.Z. Building Engines for Growth and Competitiveness in China: Experience with Special Economic Zones and Industrial Clusters. – Washington: World Bank, 2010. – 232 p.
4. UNCTAD. World Investment Report 2024. – Geneva: United Nations Publications, 2024. – 251 p.
5. Special Economic Zones of China // National Bureau of Statistics of China. Statistical Yearbook 2024. – Beijing, 2024.
6. UNCTAD. Sustainability Practices of Special Economic Zones. – Geneva: United Nations, 2024.
7. fDi Intelligence. Global Free Zones of the Year Awards 2024 Report. – London: Financial Times, 2024.
8. Ministry of Development of the Republic of Poland. Special Economic Zones Annual Report 2024. – Warsaw, 2024.
9. Eurofound. Special Economic Zones (SEZ) – Poland // EU PolicyWatch Database. – Dublin, 2024.
10. QazIndustry. Special Economic and Industrial Zones of Kazakhstan: Annual Report 2025. – Astana, 2025.